O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



YURIDIK SHAXSLAR SOLIQ YUKINING SHAKLLANISH OMILLARI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH MUAMMOLARI

Abduturov Jasurbek Nozimjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Maqolada soliq yukini baholash bo'yicha olimlarning turli fikr va qarashlari nazariy jihatdan o'rganilgan. Muallif tomonidan yuridik shaxslarni soliqqa tortish amaliyoti va tartibi, soliq turlari va uning amaldagi holati tahlil qilingan hamda tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini baholash va optimallashtirish bo'yicha ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq yuki, soliqqa tortish, soliq stavkalari va turlari, soliq hisoboti.

Abstract: The article theoretically examines various opinions and views of scientists on the assessment of the tax burden. By author analyzed the practice and procedure of taxation of legal entities, types of taxes and their current state, as well as developed scientific conclusions and proposals for assessing and optimizing the tax burden of business entities.

Key words: tax burden, taxation, tax rates and types, tax reporting.

Аннотация: В статье теоретически исследуются различные мнения и взгляды ученых на оценку налогового бремени. Автором проанализированы практика и порядок налогообложения юридических лиц, виды налогов и их текущее состояние, а также разработаны научные заключения и предложения по оценке и оптимизации налогового бремени субъектов предпринимательства.

Ключевые слова: налоговая нагрузка, налогообложение, налоговые ставки и виды, налоговая отчетность.

KIRISH

Xo'jalik subyektlariga soliq yuki davlat soliq siyosatining natijasi bo'lib, har qanday soliq tizimining sifat tavsifini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, olinayotgan soliqlar darajasi, bir tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarishning samaradorligi, boshqa tomondan esa davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji miqdori bilan belgilanadi. Shu sababli soliq yukining og'irligini kamaytirish, birinchi navbatda, davlat xarajatlarini qisqartirish va ijtimoiy xizmatlarning to'lovlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Daqhaqiqat, davlatning subyektlarga ma'lum bir turdagi "xizmat"larni ko'rsatish moliyaviy resurslarni talab qiladi. Bunday xizmat mamlakatning ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlash, sog'liqni saqlash va maorif, sog'lom va barkamol avlodni yetishtirish, xalqning madaniy meroslarini asrash (avaylash) kabi turli xil vazifalarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Davlatning amalga oshiradigan mazkur vazifalarining moliyaviy manbalarini ta'minlash soliqlar ko'rinishida aks etadi. Bu esa, shubhasiz soliq munosabatlari ishtirokchilari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning zimmasidagi yuk bo'lmish soliq yuki hisoblanadi.

Davlat uchun eng katta fiskal ta'sirga va soliq to'lovchilar uchun moliyaviy ta'sirga davlat tomonidan tartibga solish siyosati va soliq yukini optimallashtirish asosida erishish mumkin. Optimallashtirish jarayoni davlat tomonidan soliq yukining muvozanat narx parametrlarini qonuniy ravishda belgilashni nazarda tutadi.

Optimal muvozanatlashgan soliq yuki va chegaralari (qo'shilgan qiymatdagi soliq ajratmalarining pastki va yuqori darajalari) har bir mamlakat va uning rivojlanish davrlari uchun o'z qiymatlarida individualdir. Ma'lum bir vaqt oralig'ida bir mamlakat iqtisodiyoti uchun optimal deb hisoblangan soliq yukining miqdori boshqa bir mamlakat iqtisodiyoti uchun turli vaqt o'lchovlarida ortiqcha yoki kam baholanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, har bir davlat o'zining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib, maqbul soliq siyosatini ishlab chiqishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq yuki soliq munosabatlarining ajralmas xususiyati sifatida, birinchi navbatda, xususiy sektorning moliyaviy resurslarini olib qo'yishning ma'lum darajasi bilan tavsiflanadi, buning natijasida ushbu ko'rsatkichni miqdoriy aniqlash muammolari an'anaviy ravishda ilmiy izlanishlar markazida bo'ladi.

Soliq yukining nazariy va uslubiy jihatlarini va uning iqtisodiy faoliyat samaradorligiga ta'sirini o'rganish uning shakllanishi va nisbiy darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashni o'z ichiga oladi.

“Soliq yuki” ta’rifining konseptual va kategorik asoslanishi haqida gapirganda, uni talqin qilish va miqdoriy aniqlashga turli xil yondashuvlarni keltirish mumkin. Shunday qilib, soliq yukining miqdoriy jihatini va uning iqtisodiyotga bosimini birinchilardan bo’lib o’rgangan F. Yusti, uning iqtisodiy tarkibini makro daraja uchun “budjet va davlatning milliy daromadi o’rtasidagi nisbat...”, deb ta’rifladi. K. Brauerning so’zlariga ko’ra, soliq yuki “davlat to’g’ridan-to’g’ri aholi va xo’jalik yurituvchi subyektlarga yuklaydigan yukdir. Bunday soliq yukining ta’siri soliqqa tortishning og’irligi sifatida belgilanib, bu bir tomondan yukning yuklanishi va soliq to’lovchining to’lov qobiliyati o’rtasidagi munosabatlar bo’lsa, boshqa tomondan soliq majburiyati va uni ishlab chiqarish tomonidan o’tkazish qobiliyati o’rtasidagi munosabatlar sifatida belgilanadi, agarkin soliq to’lovi ishlab chiqarish xarajatlarining ajralmas qismi bo’lsa.”

Soliq yukini birinchilardan bo'lib, F. Yusti miqdoriy baholashni taklif qildi, uni budget va davlatning milliy daromadi o'rtasidagi nisbat sifatida belgilab, "milliy daromadning 1/6 qismini sarflaydigan budget normal bo'ladi" – deb ta'kidladi. Undan keyin A. Bifeld "siyosiy ko'rsatmalar" asarida soliqlik yukining maqbul miqdoriga empirik baho berdi: "Agar kim suveren o'z fuqarolariga yuklashi mumkin bo'lgan soliqlarning ushbu chorasini tayinlash uchun umumiy qoidani so'rasa, unda... sog'lom siyosat har birining daromadiga 25 foiz miqdorni belgilaydi. Agar bundan ko'proq narsani talab qilish kerak bo'lsa, unda... odamlar charchashadi; agar kamroq bo'lsa, u barcha davlat xarajatlari uchun yetarli bo'lmaydi".

Shuni ta'kidlash kerakki, soliq yuki darajasini aniqlashning uslubiy yondashuvlarini aniqlaydigan va ushbu ko'rsatkichni batafsil bayon etadigan ko'plab ilmiy nashrlar mavjud. Ba'zi mualliflar soliq yuki ko'rsatkichini soliq yig'ish koeffitsiyentiga, ya'ni barcha turdagi budjetlar va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha qarzдорlik yillik o'sishi miqdoriga moslashtirishni taklif qilishadi. Bunday tuzatish zarurati ular tomonidan soliq to'lovlari va to'lanmagan jarimalar bo'yicha mavjud qarz obyektlari bilan izohlanadi va hisob-kitoblarni amalga oshirishda ularni e'tiborsiz qoldirish soliq yukining haqiqiy darajasini buzadi.

Shu bilan birga, taklif qilingan usullar bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichlar ma'lum bir to'lov manbasiga nisbatan moliyaviy bosimni tavsiflaydi va shuning uchun cheklangan doiraga ega bo'lishi mumkin. Turli xil bazalarga ega soliqlardan foydalanishga asoslangan amaldagi soliq tizimi sharoitida umumiy soliq yukini miqdoriy baholash yaqona integral bazaga qisqartirilishi kerak.

Soliq yukini baholash va optimallashtirish muammolarini nazariy tahlil qilish qo'llaniladigan uslubiy yondashuvlarning xilma-xilligini va shunga mos ravishda olingan natijalarning ba'zi nomuvofiqligini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, bunday xilma-xillik soliq yukini makroiqtisodiy tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, uning davlatlar iqtisodiy o'sishining endogen soliq determinantlarini faollashtirish va soliq siyosatining tegishli choralari ishlab chiqish zarurati bilan bog'liq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuridik shaxslarni soliqqa tortish hamda ular zimmasidagi soliq yukini aniqlash va baholash bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, soliq stavkalari va daromad manbalarini qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

So'nggi yillarda mamlakatimizda biznes yuritish shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlik subyektlariga teng sharoitlar yaratish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash, shu jumladan, biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish hamda mulk huquqini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to'lash jamg'armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag'lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko'rib chiqildi. Quyida yuridik shaxslarni soliqqa tortish, jumladan, ularning soliq yuki darajasining amaldagi holatini ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, soliq turlari va to'lov muddatlarining hamda korxona faoliyat natijalarining raqamlardagi ifodasi bo'lmish hisobot shakllari sonining ko'pligi xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy munosabatlarida tushunmovchilik va noaniqliklarni keltirib chiqarishi tabiiy. Soliq islohoti konsepsiyasi doirasida ham ayni shu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.



Soliqlar sonini bir xillashtirish orqali optimallashtirish, shuningdek, soliq solinadigan bazasi o'xshash soliq turlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddalashtirish soliq islohotining yana bir muhim vazifa yo'nalishlaridan bo'lib, o'tgan davr mobaynida mazkur yo'nalishda salmoqli ishlar olib borildi (1-jadval).

1-jadval: Soliqlar soni, hisobot va to'lov muddatlari¹

№	2018-yildagi soliq turlari, hisobotlari, to'lovlari	2022-yildagi soliq turlari, hisobotlari, to'lovlari
Saqlab qolingan soliq va yig'implar		
1	QQS – stavkasi 20%	QQS – stavkasi 15%
	To'lov muddati – har oylik	To'lov muddati – har oylik
	Hisobot muddati – har oylik	Hisobot muddati – har oylik
2	Aksiz solig'i	Aksiz solig'i
	To'lov muddati – har oylik	To'lov muddati – har oylik
	Hisobot muddati – har oylik	Hisobot muddati – har oylik
3	Bojxona boji va yig'implari	Bojxona boji va yig'implari
	To'lov muddati – Deklaratsiyani topshirishdan oldin yoki o'sha vaqtda	To'lov muddati – Deklaratsiyani topshirishdan oldin yoki o'sha vaqtda
4	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i – stavkasi 14%	Foyda solig'i – stavkasi 15%
	To'lov muddati – har oylik, har choraklik	To'lov muddati – har oylik, har choraklik
	Hisobot muddati – har choraklik	Hisobot muddati – har choraklik
5	Yagona soliq to'lovi – stavkasi 5%	Aylanmadan olinadigan soliq – stavkasi 4%
	To'lov muddati – har choraklik	To'lov muddati – har oylik
	Hisobot muddati – har choraklik	Hisobot muddati – har oylik
6	JShODS – stavkasi 4 shkala bo'yicha 0%-22%	JShODS – stavkasi 12%
	To'lov muddati – har oylik	To'lov muddati – har oylik
	Hisobot muddati – har oylik	Hisobot muddati – har oylik
7	Yagona ijtimoiy to'lov – stavkasi 25%, KK uchun – 15%	Ijtimoiy soliq – stavkasi 12%
	To'lov muddati – har oylik	To'lov muddati – har oylik
	Hisobot muddati – har oylik	Hisobot muddati – har oylik
8	Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq	Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
	To'lov muddati – har oylik	To'lov muddati – har oylik
	Hisobot muddati – har choraklik	Hisobot muddati – har oylik
9	Bonuslar	Bonuslar
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
	To'lov muddati – har oylik, har choraklik	To'lov muddati – har oylik, har choraklik
	Hisobot muddati – har yillik	Hisobot muddati – har yillik
11	Mol-mulk solig'i – stavkasi 5%	Mol-mulk solig'i – stavkasi 1,5%
	To'lov muddati – har oylik, har choraklik	To'lov muddati – har oylik, har choraklik
	Hisobot muddati – har yillik	Hisobot muddati – har yillik
12	Yer solig'i	Yer solig'i
	To'lov muddati – har oylik, har choraklik	To'lov muddati – har oylik, har choraklik
	Hisobot muddati – har yillik	Hisobot muddati – har yillik
13	Davlat boji	Davlat boji
14	Yig'implar	Yig'implar
Birlashtirilgan soliqlar		
15	Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	-
16	Yagona yer solig'i	-

1 Muallif tomonidan tayyorlangan.

**Bekor qilingan soliqlar**

17	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	-
18	Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar	-
19	Qo'shimcha foyda solig'i	-

Joriy qilingan soliq turlari

20	-	Foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun maxsus renta solig'i
		To'lov muddati – har choraklik
		Hisobot muddati – har choraklik
21	-	Utilizatsiya yig'imi
		To'lov muddati – har oylik
		Hisobot muddati – har oylik

Soliqlarni kamaytirish va unifikatsiya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan:

- infratuzilmani rivojlantirish solig'i, davlat jamg'armalariga ajratmalar, qo'shimcha foyda solig'i qisqartirildi;
- neft mahsulotlarini ishlatganlik uchun olinadigan soliq, yagona yer solig'i – boshqa soliqlar bilan birlashtirildi;
- yig'implardan – avtotransport vositalarini sotib olinganligi va (yoki) O'zbekiston hududiga vaqtincha olib kirilganligi uchun yig'im chiqarib tashlandi.

Bir vaqtning o'zida renta solig'i va utilizatsiya yig'imi kabi yangi to'lovlar joriy etildi. Soliq va yig'implar soni 2018-yilda 19 tani, 2022-yilda 16 tani tashkil etdi.

To'lanadigan soliqlar soni bo'yicha olinsa:

- umumbelgilangan soliqlarning o'rtacha to'lovchisida to'lanadigan majburiy soliqlar soni (aksizlar, yer qa'ridan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlar, shuningdek, yig'implar to'lovchilarini hisobga olmaganda) 2018-yildagi 8 tadan 2022-yilda 6 taga kamaydi;
- soliqlarni soddalashtirilgan tartibda to'laydigan o'rtacha to'lovchi uchun (2019-yildan boshlab aylanmasi 1,0 mlrd so'mgacha bo'lgan) majburiy soliqlar soni 2018-yildagi 3 tadan 2022-yilda 5 taga ko'paydi (2-jadval).

Tadbirkorlik faoliyatini manzilli qo'llab-quvvatlash, ularning har biri bilan alohida yondashuvlar asosida ish-lash tizimini yo'lga qo'yildi. Xususan, ularga yengillashtirilgan moliyaviy resurslar ajratilib kelinmoqda.

Mazkur islohotlar natijasi o'laroq haqiqiy soliq yukini bilish uchun biz shartli misol yordamida yoritib o'tishga urinib ko'ramiz. Tahlilning xolisligi uchun umumbelgilangan tartibda (yirik va o'rta korxonalar) va sod-dalashtirilgan tartibda (kichik korxonalar) soliqlarni 2018-yilgi soliqlar sharoitida to'laydigan korxonaning shartli namunasi olinib, 2022-yilda amalda bo'lgan soliqlar sharoitidagi holat bilan taqqoslanadi.

2-jadval: 2018 va 2022-yillarda soliqlarning yalpi tushumdagi ulushining taqqoslama jadvali (shartli misollarda, ming so'mda)²

№	Ko'rsatkich nomi	2018-yil		2022-yil shartlaridagi 2018-yil	
		Umumbelgi-langan tartibda soliqqa tortish tizimi	Soddalashti-rilgan tartibda soliqqa tortish tizimi	Aylanmasi 1 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan	Aylanmasi 1 mlrd so'mgacha bo'lgan
1	Mahsulot realizatsiyasidan yalpi tushum	80 000	80 000	80 000	80 000
2	Sof tushum (QQS va YaST chegirgan holda)	66 667	76 000	69 565	76 800
3	Sotilgan mahsulot tannarxi, shundan	60 000	60 000	60 000	60 000
	Ish haqi xarajatlari	30 000	36 000	36 000	36 000
4	Yalpi foyda	6 667	16 000	9 565	16 800
5	Soliqlar, shu jumladan:				
5.1	QQS (hisobga olish (zachet)ni hisobga olmaganda) soliq stavkasi: 2018-yil-20%, 2022-yil-15%	13 333	-	10 435	-

² Muallif tomonidan tayyorlangan.




5.2	Yagona ijtimoiy to'lov (2020-yildan ijtimoiy soliq) soliq stavkasi: 2018-yilda kichik korxonalarga-15%, qolganlari-25%, 2022-yilda-12%	7 500	5 400	4 320	4 320
5.3	Mol-mulk solig'i soliq stavkasi: 2018-yilda-5%, 2022-yil-1,5%	3 310	-	1 000	1 000
5.4	Yer solig'i soliq stavkasi: har yili indeksatsiya qilinadi	1 200	-	2 000	2 000
5.5	Foyda solig'i soliq stavkasi: 2018-yilda-14%, 2022-yilda-15%	933	-	1 339	-
5.6	Yagona soliq to'lovi (2019-yildan aylanmadan olinadigan soliq) soliq stavkasi: 2018-yilda-5%, 2022-yilda-4%	-	4 000	-	3 200
6	Jami soliq to'lovlari	26 277	9 400	19 094	10 520
7	Yalpi tushumdagi barcha soliqlarning ulushi	32,8%	11,8%	23,9%	13,2%

2-jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2018-yilda yirik va o'rta korxonalarga soliq yuki darajasi kichik korxonalarga soliq yuki darajasidan deyarli uch baravar ko'p edi (mos ravishda 32,8 foizga 11,8 foiz). Soliq islohoti natijasida (2022-yil soliq tizimi sharoitida) yirik va o'rta korxonalarga soliq yuki sezilarli darajada kamaydi (32,8 foizdan 23,9 foizga tushdi), aylanmasi 1 milliard so'mgacha bo'lgan kichik korxonalarga soliq yuki deyarli o'zgar-madi. Ilgari kichik korxonalar toifasi xodimlar sonidan kelib chiqib aniqlangan bo'lsa, tadbirkorlik subyektlari toifalarini yillik tovar aylanmasi summasidan kelib chiqib belgilash joriy etildi. Shu bilan birga, aylanmasi 1 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan kichik korxonalar uchun soliq yuki sezilarli darajada oshdi (8,5 foizdan 13,2 foizgacha).

Bugungi kunda, tadbirkorlik subyektlari o'zlarining narx va hisob siyosatini shakllantirishda soliq to'lovlari optimallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratishmoqda. Zamonaviy ilg'or korxonalarda davlatning soliq siyosatidagi o'zgarishlardan kelib chiqib, rahbarlarga samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradigan butun boshli bo'linmalar faoliyat yuritishadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qilina-digan moliyaviy qarorlar mamlakatda amalda bo'lgan barcha soliq turlariga bog'liq bo'ladi.

Soliq yuki oshib borishi ortidan, ishlab chiqaruvchi o'z mahsulotlarining narxini oshirish orqali fiskal yukning bir qismini iste'molchiga "o'tkazishi" mumkin. Xarajatlarning oshishi soliq to'lovlari miqdoriga turlicha ta'sir qiladi. Masalan, ish haqining o'sishi ijtimoiy soliq oshishiga olib keladi, ammo foyda solig'i bazasini kamaytiradi. Yaratilgan kapital yoki moliyaviy qo'yilmalar qiymatidagi soliqlar bo'yicha imtiyozlar korxonalarning investitsion va innovatsion faoliyatini kuchaytiradi.



1-rasm: 1997-2022-yillar davomida yuridik shaxslar uchun soliq turlari kesimida amalda bo'lgan soliq imtiyozlari soni³

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Soliq imtiyozlari orqali soliq to'lovchilarning soliq yuki kamaytiriladi. Soliq imtiyozlari budjetga tushumlarni kamaytirgani bois, fiskul nuqtayi nazarda ularni amalda qo'llash davlat manfaatlariga mos emas. Ammo soliq imtiyozlari tufayli iqtisodiyot tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishini va xo'jalik yurituvchi subyektlar daromadining o'sishi, o'z navbatida soliq bazasining oshishiga, bu esa budjetga soliq daromatlari tushumining oshishiga olib kelishi mumkin.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 1997–2013-yillar oralig'idagi davrda yuridik shaxslar uchun 9 ta soliq turlari bo'yicha jami 82 ta soliq imtiyozlari amalda bo'lgan bo'lsa, 2014–2017-yillar oralig'idagi davrda esa jami 118 ta soliq imtiyozlari mavjud bo'lgan. 2018-yilda amalga oshirilgan soliq islohoti natijasida yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlarini taqdim etish borasida ham sezilarli o'sishga erishilgan. Xususan, 2018–2022-yillar davomida jami 557 ta, shundan 2020-yilni o'zida foyda solig'i bo'yicha – 25 ta, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha – 109 ta, aksiz solig'i bo'yicha – 11 ta, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha – 13 ta, mol-mulk solig'i bo'yicha – 23 ta, yer solig'i bo'yicha – 38 ta, ijtimoiy soliq bo'yicha – 5 ta, aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha – 19 ta soliq imtiyozlari amaliyotda foydalanilgan. 2020-yilda soliq imtiyozlarining bu qadar keng ko'lamda taqdim etilishi shu yili kuzatilgan koronavirus pandemiyasi bilan bevosita bog'liq. Koronavirus pandemiyasi davrida infeksiyaning keng tarqalishining oldini olishga qaratilgan maxsus choralar, karantin cheklavlari joriy etilishi, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini olib borishda ayrim cheklanishlarga sabab bo'ldi. Shu munosabat bilan, iqtisodiy o'sish va investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish, ishlab chiqarish sur'atlarini tiklash, tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ular uchun bir qator imtiyoz va yengilliklar taqdim etildi.

3-jadval: Yuridik shaxslar uchun ayrim soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarining o'zgarish dinamikasi, 4 foizda

Soliq turlari	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2022-yilda 2018-yilga nisbatan o'zgarish, barobar
Foyda solig'i (asosiy iqtisodiyot subyektlari uchun)	14	12	12	15	15	▲ 1,07
Qo'shilgan qiymat solig'i	20	15	15	15	15	▼ 1,33
Yagona soliq to'lovi, 2019-yildan AOS (asosiy iqtisodiyot subyektlari uchun)	5	4	4	4	4	▼ 1,25
Yagona ijtimoiy to'lov, 2019-yildan ijtimoiy soliq	15	12	12	12	12	▼ 1,25
Mol-mulk solig'i	5	2	2	2	1,5	▼ 3,33

Soliq solishning tez-tez o'zgarib turishi har doim ham ish yuritishga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi, shuning uchun soliq yukini muntazam ravishda ko'rib chiqish tadbirkorlar uchun majburiy tartibga aylanib qolmoqda. Shuningdek, mamlakat budjetini to'ldirish uchun davlat soliq yig'ishni qattiqashtirishi natijasida soliq bosimi tobora kuchayib borishi xech kimga sir emas. Soliq yukini hisoblashda har bir tadbirkor bitta maqsadga ega – bu qiymatning muhim ko'rsatkichiga erishishdir. Maqsadga erishgandan so'ng, ularning soliq majburiyatlari qonuniy ravishda kamayadi.

Yuridik shaxslarning zimmasidagi soliq yukini aniqlash bo'yicha hozirgi kunga qadar ilmiy adabiyotlarda turli xil yo'nalishlar mavjud. Ularni hisoblash yuridik shaxslar hamda iqtisodiyot qay darajada soliq yuki ta'sirida faoliyat ko'rsatayotgani aniqlash imkonini beradi.

Yuqori soliq yuki korxonalarni norasmiy iqtisodiy faoliyat (yashirin qora bozor)da ishlab chiqarishga rag'batlantirsa (undasa) ham, soliq organlari nazariga tushib qolmaslik ehtimolini kamaytirish maqsadida unumdorligi past bo'lgan kichik korxona bo'lib qolishga moyilligini oshiradi. Buning ustiga, soliq tizimi qanchalik keng ko'lamli va murakkab bo'lsa, korxonalar soliqni to'lash uchun shuncha ko'p vaqt va mablag' sarf qiladilar.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqori soliq stavkalari, jumladan, transfert manfaatlarini yo'qotishni aks ettiruvchi bilvosita soliq stavkalari, ishlab chiqarish faoliyatini qisqartiradi, bandlik va investitsiyaga to'sqinlik qiladi hamda resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanishga olib keladi. Ular rivojlanishga va daromadlarning o'sishiga g'ovdir. Undan tashqari, iqtisodiy turg'unlik davrida soliq stavkalarining keskin oshirilishi iqtisodiyotda halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hukumatlar tomonidan soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali qo'shimcha soliq tushumlarini jalb qilish uchun islohotlar doimiy ravishda o'tkazilib kelinadi. Bizning mamlakatimizda ham biznesni yuritish, tashqi va ichki investitsiya hajmini yanada oshirish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash



hamda qulay va sog'lom raqobat muhitini yaratish borasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, biznesni yuritishni soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlarining soliq yukini kamaytirish, ular keltirayotgan iqtisodiy-ijtimoiy naflarni hisobga olib, ularga soliq imtiyozlari, yengilliklari, preferensiyalaridan foydalanish huquqini berishda adolatlilik prinsiplariga amal qilish bo'yicha qator masalalarni hal etish davr taqozosi ekanligini qayd etish lozim.

Shu munosabat bilan tadbirkorlik foliyatini rivojlantirish, teng raqobat muhitini yaratish, ularning soliq yukini kamaytirish hamda amaldagi qo'llab-quvvatlash tizimini yanada yaxshilash maqsadida quyidagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha quyidagi fikrlar ilgari suriladi:

1. Iqtisodiyot tarmoqlariga chuqur kirish va tahlil ishlarini olib borish va yuritish, bunda quyidagi masalalarni e'tiborga olish:
 - Mahsulotning har bir o'lchami uchun qancha miqdorda soliq to'lanayotganligi;
 - Ishchilar soni va o'rtacha oylik maoshi;
 - To'lanayotgan majburiy to'lovlar bo'yicha ayni bir xil sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini o'zaro taqqoslash orqali soliq yukini qayta taqsimlash.
2. Soliq to'lashni ommalashtirish, soliq to'lovchilar, ayniqsa, yuridik shaxslar reytingini tuzish orqali yuqori o'rin (ball)larni qo'lga kiritgan tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha yengillik, rag'batlantirish va preferensiyalar taqdim etish va shu orqali ularning soliq yukini kamaytirishga erishish.
3. Soliq to'lovchilar, ayniqsa, yuridik shaxslar reytingini shakllantirish uchun ular faoliyatini baholash bo'yicha ochiq-oshkora mezonlarni aniq belgilash;
4. Reytingni shakllantirishda xususan, quyidagilarni nazarda tutish:
 - Soha bo'yicha eng ko'p soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari;
 - Soliq rejimi bo'yicha eng ko'p soliq to'lovchi tadbirkorlik subyektlari;
 - Soha bo'yicha eng ko'p oylik ish haqi to'lovchi tadbirkorlik subyektlari;
 - Soha bo'yicha eng ko'p ishchi o'rni yaratgan tadbirkorlik subyektlari;
 - Faoliyatini uzoq vaqtdan beri amalga oshirib kelayotganligi hamda yildan yilga o'sish ko'rsatkichiga egaligi;
 - Tadbirkorlik subyekting debitorlik va kreditorlik qarzdorligi holati, qarzdorlik summasining kam miqdorda saqlanib turishi;
 - Soliq qarzining mavjud emasligi va (yoki) qarzdorlikning tez qoplanishi;
 - Ish faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng jalb qilgan tadbirkorlik subyektlari kabi yana boshqa yo'nalishlar.
5. Belgilangan reyting mezonlari bo'yicha yuridik shaxslar faoliyatini baholashda maksimal ravishda inson omilidan cheklangan holda avtomatlashtirilgan tizimlar vositasida aniqlashga alohida e'tibor qaratish;
6. Reyting mezonlari bo'yicha yuridik shaxslar faoliyat natijalari baholarini internet tarmog'ida ochiq platforma orqali muntazam e'lon qilib borish.

Soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq yukini nol miqdorgacha tushirish imkonsiz ekanligini anglagan holda aytish mumkinki, ularning soliq yukini fiskal instrumentlar va qo'shimcha dastaklar vositasida optimallashtirib turish orqali tadbirkorlik faoliyatining bir maromda rivojlanishiga hamda budjetga soliq tushumlarining uzluksiz kelib tushishiga erishish mumkin. Albatta, bu holatda ularning soliq yukini me'yorlash uchun adolatlilik va tenglik mezonlari asosida qonuniy shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar / Literatura / Literature:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi (yangi tahriri).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi "Soliq ma'muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-sonli Qarori.
5. D. G. Chernik / Soliq tizimining asoslari. – M.: YUNITI, 2002. –445-b.
6. "Rossiya Federatsiyasining soliqlari va soliq tizimi" / V. G. Panskov. Darslik. –M.: Moliya va statistika, 2005. 93-bet.
7. "Soliqni rejalashtirish" / S. E. Vil'kova, M. V. Romanovskiy. SPb., Piter, –2004. 476-bet.
8. D. G. Chernik / Soliq tizimining asoslari. – M.: YUNITI, 2002. 445-b.
9. M. I. Litvin / Soliq yuki va korxonalarning iqtisodiy manfaatlari. Moliya, 1998. 5-son. –31-b;
10. V. G. Panskov / Rossiya Federatsiyasida soliqlar va soliqqa tortish. M.: Kitob dunyosi, 1999. 67-68-b.
11. "Directions for optimizing the tax burden in the economy" – B. Mahkamov, Sh. Turayev Primedia E-launch Shawnee, USA 2023. –117-bet.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.